



GUL TIMSOLI VA LIRIK QAHRAMON RUHIYATI

Boboqulova Oyjamol Saidovna,

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD)

Toshkent amaliy fanlar universiteti,

Utanova Sirdaryoxon Hakimjonovna,

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent amaliy fanlar universiteti,

(O'zbekiston)

Email: sirdaryoxon@yandex.ru

Annotatsiya: *ushbu maqolada Alisher Navoiy g'azallarida eng ko'p qo'llaniladigan obrazlardan biri – gul va sarv timsollariga alohida diqqat qilingan. Unda gulning badiiy tasvir vositasigina emas, irfoniy, tasavvufiy mazmuni chuqur ekani hamda ramziy ma'nolarda keng qo'llanilgani haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *Navoiy, gul, sarv, tikan, bulbul, g'azal, devon, tasavvuf, ramz.*

Annotatsiya: *V dannoy state rassmatrivayutsya naibolee chasto ispolzuemye obrazy v gazelyax Alishera Navoi — svetok i kiparis. Obsujdaetsya ideya o tom, chto svetok yavlyaetsya ne tolko xudojestvennym sredstvom vyrajeniya, no i obladaet glubokim misticheskim i misticheskim smyslom i shiroko ispolzuetsya v simvolicheskom znachenii.*

Klyuchevye slova: *Navoi, svetok, kiparis, ship, solovey, gazel, divan, mistitsizm, simvol.*

Abstract: *This article examines the most frequently used images in Alisher Navoi's ghazals—the flower and the cypress. It discusses the idea that the flower is not only an artistic medium but also possesses profound mystical and mystical meaning and is widely used symbolically.*



Keywords: *Navoi, flower, cypress, thorn, nightingale, gazelle, divan, mysticism, symbol.*

Alisher Navoiy ijodini mazmun e'tibori bilan Islom dini haqiqatlariga yo'g'rilgan, tasavvufning vahdat ul-vujud nazariyasiga oid ko'plab tushunchalar badiiy matnga ko'chib o'tgan majmua, komillikka eltuvchi saboqlik sifatida qarash mumkin. Ular shoirning tasavvufiy mazmundagi asarlarida, diniy mavzudagi kitoblarida, qator dostonlarida, lirik devoniga kirgan ko'plab alohida she'rlari mohiyatida mujassamlashgan. Solikning ruhiy holati, ichki kechinmalari, holdan holdan o'tish bosqichlari, azaliy oshiyonidan xokdon g'aribiston¹ni makon etgan ruhning hijronda, g'urbat²da kechgan ko'ngil dardlari "G'aroyib us-sig'ar" devoniga kirgan quyidagi g'azalda an'anaviy obraz, tushuncha, timsol va istilohlar vositasida qalamga olingan.

She'rda o'z mabdaiga intilayotgan, YAratuvchisiga talpinayotgan, go'zallikka cheksiz oshufta yurakning nolalarini tinglash mumkin. An'anaviy 7 bayt hajmida bitilgan she'r qahramonida sarv-u gulning vasliga etmoq ilinji ustuvor.

*Butmadi gulshan tavofi birla bag'rim yorasi,
Bermadi o'tumg'a taskin sarvu gul nazorasi.*

*Bir zamone sarvu bir dam gulga ko'p qildim nazar,
Bo'lmadi ul sarvi gulrux furqatining chorasi.*

Gul bila sarv istabon gulshan sari mayl aylamas,

¹ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 14-жилд. "Маҳбуб ул-қулуб". – Тошкент: Фан, 1996. – Б. 112.

² Бу ҳақда қаранг: И.Ҳаққулов. Шеърӣ матн ва образ маънодорлиги; Б.Эрали. Мажозий муҳаббат ҳақиқатлари. – Тошкент: Академнашр, 2015. – 12-20-бетлар.



Dashtdin ul sarvi gulruxsoraning ovorasi.

*Qaddi hajrida har ohim dudi sarvedur baland,
YUzidin ayru guledur ko 'kragim har porasi.*

*Sarvu gul maftuni bo 'lmakim nigoru zeb uchun,
Sindurub har dam uzar oni falak makkorasi.*

*Sarv o 'qdur, gul tikan, bog ' ichra to ko 'z ollidin
Borg 'ali ul sarvi gulruxning qadu ruxsorasi.*

*Ey Navoiy, sarvu guldin kechki, qaddu yuzidin
Bor emish yuz yilchilig ' yo 'l sarv ila gul orasi. ("G'.S., 628)*

Gul – Sharq adabiyotining yorqin va keng iste'molda bo'lgan obrazlaridan biri bo'lib, bu o'zakdan hosil qilingan “gulzor, gulshan, guliston”, “gulro'y, gul'uzor, gulyuz”, “gulgun, gulrang, gulnor, gulira'no”, “gulgasht, gulgong, gulfishon, gulob, gul bargi, gul mavsumi, gulbahor” kabi ko'plab so'zlar badiiy tasvirda etakchilik qiladi. Xuddi shuningdek, “sarv” kalimasidan yasalgan “sarvqomat”, “sarvi suman”, sarvi sanobar”, “sarvibo'y” singari qator qo'shma otlar ham gul bilan yonma-yon tugal manzaralarni yaratgan. Tasavvufiy adabiyotlarga ko'ra, har ikki obraz ham o'zida ramziy mazmunni mujassam etgan bo'lib, ko'pincha bir-birini taqozo etuvchi birliklar ekanligi ko'rinadi.³ Darhaqiqat, irfoniy tilda gul ilohiy go'zallikni ifoda etgani kabi, hazrati Muhammad(s.a.v.)ning ham simbolini tashiydi. SHu sababdan klassik adabiyotlarda “vardi Muhammadi” yoki “guli Muhammadiy” iboralari tez-tez uchraydi. Boshqa tarafdin esa, sarv vahdat(yagonalik, birlik)ni, gul

³ Ислом энциклопедияси. – Истанбул, 1999. Б. 513.



esa kasrat(ko‘plik)ni tamsil etgani uchun “sarvi gul” mazmunidagi so‘z birikmalarida kasrat ortiga yashirilgan vahdatni anglash lozim bo‘ladi.⁴

Demak, bevosita matla’ga nazar solaylik. Unda bir-biriga yaqin tushunchalarni o‘zida jamlagan tanosib otlari qo‘llanilgan: *gulshan, bag‘ir, yara, o‘t, sarv, gul*. Bunda “gulshan” kalimasi ham gullar ochilgan bog‘, guliston, gulzor bo‘lib, tabiiyki, ramzlashib, qalbni mutlaq fath etilishi va ochilishi, solik ko‘nglining ma’rifat va irfonga yuz tutishi⁵ga ishora qiladi.

*Butmadi gulshan tavof⁶i birla bag‘rim yorasi,
Bermadi o‘tunga taskin sarvu gul nazorasi.*

Murshidning ta’limi va tarbiyasida SHariat, Tariqatning ma’lum talablarini bajarib, ruh tazkiyasida Ma’rifat maqomiga erishgan solik bag‘ri jarohatli. Unga davo istab gulshanni etti daf’a aylanib, tavof etsa-da, yor ko‘yining tufrog‘i yarali qalbiga davo bo‘la olmayapti. Jilla qursa, ishq alangasida yonayotgan yuragi sarv-u gullarga boqib ham taskin topa bilmadi. Axir, yorning raso, benuqson qaddini yodga soluvchi sarv daraxti, mahbubaning gulrang yuzini yodga soluvchi gul oshiqqa tasalli bo‘lishi lozim edi. Ammo unday bo‘lmadi, buning sababi keyingi misrada ayon bo‘lmoqda.

*Bir zamone sarvu bir dam gulga ko‘p qildim nazar,
Bo‘lmadi ul sarvi gulrux furqatining chorasi.*

Bir sarvga, bir gulga qayta-qayta qarasam-da, o‘shal gulrux sarvqaddan ayrilig‘inning mashaqqatlariga chora bo‘la olmagan edi. Bu erda “bir zamon”, “bir nafas” Haq taoloning fayzidan iborat bo‘lgan rahmoniy nafas.

*Gul bila sarv istabon gulshan sari mayl aylamas,
Dashtdin ul sarvi gulruxsoraning ovorasi.*

⁴ Нажмиддин Шахинлар. Қора ва яшил: Қуръонда ранг символизми. – Истанбул, 1999. – Б. 62.

⁵ С.Улдоғ. Тасаввур атамалари луғати. – Истанбул, 1995. – Б. 209.

⁶ Тавоф – ҳаж ёки умра амалларидан бири бўлиб, Каъбани етти карра айланишдир.



Sarvqomat, gul yuzli dilbari vasliga etmoq istagida ovoralikni bo‘yniga olgan Haq oshiq sarvigul hajrida gulshanga kirmaydi, zero, qalbida otash-u alanga bo‘lib alangalanayotgan ishq o‘ti gulshanni allaqachon dasht-u sahroga aylantirgan.

Sarvu gul maftuni bo‘lmokim, nigoru zeb uchun,

Sindurub har dam uzar oni falak makkorasi.

Chinakam oshiqlik maqomini ko‘zlagan, niyati xolis, Allohning rizoligini ko‘zlagan, Muhammad sallollohu alayhi vasallamning shafolatlaridan umidvor solik zeb-ziynat, ko‘z-ko‘zlash, munofiqlik, o‘tkinchi chiroy uchun maftunu shaydolik qilar ekan, makkor falak bunday kimsani har damda halokatga uchratadi, riyodan yaralgan muhabbat jomini, ya’ni ko‘ngulni sindirib, sarv-u gulning barglari kabi yaproq shaklidagi yurakni uzib otadi. Baytda teskari aylanuvchi dahr qalloblik yo‘lidagi har qanday qing‘ir yurak egasini vaqtning keskir shamol-u bo‘ronida yo‘qlikka, mavhumlikka otishi shu zaylda ogoh etilgan.

Har baytda uchrayotgan gul va sarv timsollari kompozitsion zanjir o‘laroq g‘azal misralarini ham shaklan, ham mazmunan o‘zaro bog‘lab turibdi, shuningdek, shoirning ulardan har baytda foydalanishida muayyan estetik niyat yashiringan bo‘lib, Azaliy yor – Allohning jamoliga intilish, uning sevimli do‘sti va oxirzamon payg‘ambari Muhammad sallalohu alayhi vasallamga bo‘lgan sog‘inch tuyg‘ulari aks etgan.

Sarv o‘qdur, gul tikan, bog‘ ichra to ko‘z ollidin

Borg‘ali ul sarvi gulruxning qadu ruxsorasi.

Ey Navoiy, sarvu guldin kechki, qaddu yuzidin

Bor emish yuz yilchilig‘ yo‘l sarv ila gul orasi.

So‘nggi baytlarda shoir umrboqiy haqiqatlarning badiiy talqinidan so‘z yurita boshlaydi. YUqorida biz sarvning ma‘rifiy ma‘noda Allohning yagonaligiga yoki solikning asl manbai ila birlik holiga ishora etishi, gul esa latofat, malohatning



zuhuri haqida so‘z yuritdik. SHoir yorning raso, tik qaddiga mengzalgan sarv-u beqiyos husnini tamsil etuvchi yuziga o‘xshatilgan guldan voz kechishga undamoqda. Boshqacha qilib aytganda, cheksiz husni jamol sohibi – Alloh taolo ila, uning sevimli payg‘ambari, o‘zida har jihatdan to‘kislikni tajassum etgan Gul – Muhammad alayhissalomga etishmoqlik, uning suhbatidan bahra olmoqlikning oson emasligidan ogoh etmoqda. Sababi ayon: Talab, Ishq, Istig‘no, Ma’rifat kabi maqom va bosqichlarda ko‘plab riyozat-u chekib, nafsni engish yo‘lidagi ayovsiz kurashlarda toblanib borayotgan solik – Gul oshig‘i so‘nggi manzilga etgunga qadar hali undan-da ziyoda sinovlarga sabot bilan bardosh berishi lozim. Allohning roziligini topmoqlik, murodga etishmoqlik sevimli do‘sti va elchisi Muhammad s.a.v.ning muhabbatlariga erishmoqlik ila bo‘lishi, bu esa yuz yillardan ham ortiq vaqtga teng bo‘lgulik nafs mujodalasi, ruh tasfiyasi, ilmi holning yuksalishi ila amalga oshadigan jarayondir.

Bir g‘azalda tasvir etilayotgan shu kabi ruhiyat manzaralari Navoiyning yana ko‘plab she‘rlarida turli-tuman ko‘rinishlarda, obraz va timsollarda aks etgan. Ularni tadqiq etish shoir she‘rlarining mazmunini yanada yaxshi anglash barobarida o‘quvchini muallif ila ruhan yaqinlikka, hamfikrlikka olib keladi. Matnda chiroyli tashbehlar, aynan gul va sarvda birlashgan go‘zallik kitobxonni ham befarqlikdan sergaklikka, oddiy o‘quvchidan muhiblikka, ilmi toliblikdan mushohadakor, aql-u ruhini boqiy safarga tayyorlayotgan bandalik tomon etaklayveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. –T. Sharq nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991.
2. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. – T.: Adabiyot va san’at, 1983.
3. Alisher Navoiy. MAT. 20 jildlik. 6-jild. –T.: Fan, 1990.
4. Alisher Navoiy. MAT. 20 jildlik.14-jild. –T.: Fan, 1998. –B. 46.
5. Alisher Navoiy. MAT. 20 jildlik. 15-jild. –T.: Fan, 1999.



6. Alisher Navoiy. MAT. 20 jildlik. 13-jild. T.: Fan, 1997.
7. Alisher Navoiy. MAT. 20 jildlik. 3-jild. – T.: Fan, 1988.
8. Alisher Navoiy. 15 jildlik. 5-jild. –Toshkent: Badiiy adabiyot, 1965.
9. Bertels. E.E. Sufizm i sufiyskaya literatura. –M.: Nauka, 1965.
10. Haqqulov I. She'riy matn va obraz ma'nodorligi;
11. Erali B. Majoziy muhabbat haqiqatlari. – T.: Akademnashr, 2015. – 12-20-betlar.
12. Islom ensiklopediyasi. – Istanbul, 1999. B. 513.
13. Komilov N. Tasavvuf. – T.: Movarounnahr – O'zbekiston, 2009.
14. Komilov N. Xizr chashmasi. –Toshkent: Ma'naviyat, 2005.
15. Najmiddin Shahinlar. Qora va yashil: Qur'onda rang simbolizmi. – Istanbul, 1999. – B. 62.
16. Prigarina N., CHalisova N., Rusanov M. Xafiz. Gazeli v filologicheskom perevode. M.: Orientalia et classica, 2012.
17. Rustamiy A. Saylanma. 2 jildlik. 1-jild. –T.: Zilol buloq, 2022.
18. Sajjodiy S. J. Farhangi istilohot va ta'biroti irfoniy. 1370 h.
19. Uludog' S. Tasavvur atamaları lug'ati. – Istanbul, 1995. – B. 209.